Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafro‘z Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ.....	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA’LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В ОTR GROUP.....	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	



O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH

Sharopova Nafosat

TDIU Marketing kafedrası dotsenti, DSc
nafosat.sharopova@mail.ru
ORCID: 0000-0001-9595-0655

Xolmamatov Diyorbek

TDIU Kechki ta'lim va magistratura fakulteti
Marketing yo'nalishi 1-bosqich magistranti
kholmamatovv@gmail.com
ORCID: 0009-0000-8462-9436

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida xorijlik talabalar sonini oshirishda yashil marketing strategiyalarining samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Asosiy maqsad dunyoning yetakchi universitetlarining barqarorlik va yashil marketing sohasidagi ilg'or tajribalarini tahlil qilish va ularni mahalliy sharoitga xususan, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kabi nufuzli muassasalar kontekstida qo'llash imkoniyatlarini o'rganishdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil infratuzilmani rivojlantirish, barqarorlik hisobotlarini muntazam nashr etish va ekologik startaplarni rag'batlantirish kabi chora-tadbirlar universitet imijini mustahkamlaydi, xalqaro talabalarning ishonchini oshiradi va ularni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro miqyosda kuzatilayotgan barqarorlik tendensiyalari endi talabalarning ta'lim muassasasini tanlashida hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Maqola oliy ta'lim rahbarlari, marketing mutaxassislari va ta'lim siyosatini ishlab chiqadigan tashkilotlar uchun amaliy qo'llanma vazifasini o'tashi mumkin. Unda mahalliy universitetlarning raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro ta'lim bozorida o'rnini mustahkamlash uchun zamonaviy yondashuvlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: yashil marketing, xorijiy talabalar, barqarorlik strategiyalari, oliy ta'lim muassasalari, universitet imiji, ekologik tadbirlar.

Abstract. This article examines the effectiveness of green marketing strategies in increasing the number of international students at higher education institutions in Uzbekistan. The primary aim of the study is to analyze best practices of leading universities worldwide in the fields of sustainability and green marketing, and to explore the possibilities of adapting these practices to local conditions, particularly in the context of prestigious institutions such as Tashkent State University of Economics. The findings indicate that measures such as developing green infrastructure, regularly publishing sustainability reports, and supporting environmental start-ups strengthen a university's image, enhance the trust of international applicants, and play a significant role in attracting them. Global sustainability trends are increasingly becoming a decisive factor in students' choice of educational institution. This article may serve as a practical guide for higher education administrators, marketing specialists, and policymakers. It proposes modern approaches aimed at improving the competitiveness of local universities and strengthening their position in the international education market.

Key words: green marketing, international students, sustainability strategies, higher education institutions, university image, environmental initiatives.



Аннотация. Данная статья посвящена изучению эффективности стратегий зелёного маркетинга в повышении числа иностранных студентов в высших учебных заведениях Узбекистана. Основная цель исследования — анализ передового опыта ведущих мировых университетов в области устойчивого развития и зелёного маркетинга, а также изучение возможностей его адаптации к местным условиям, в частности в контексте таких престижных учреждений, как Ташкентский государственный экономический университет. Результаты исследования показывают, что такие меры, как развитие зелёной инфраструктуры, регулярная публикация отчётов об устойчивости и поддержка экологических стартапов, укрепляют имидж университета, повышают доверие иностранных абитуриентов и играют важную роль в их привлечении. Глобальные тенденции устойчивого развития постепенно превращаются в решающий фактор при выборе учебного заведения. Статья может служить практическим руководством для руководителей высших учебных заведений, специалистов по маркетингу и организаций, занимающихся разработкой образовательной политики. В ней предложены современные подходы к повышению конкурентоспособности местных университетов и укреплению их позиций на международном образовательном рынке.

Ключевые слова: зелёный маркетинг, иностранные студенты, стратегии устойчивого развития, высшие учебные заведения, имидж университета, экологические инициативы.

KIRISH

Global raqobat sharoitida oliy ta'lim muassasalari endi faqat akademik sifat bilan baholanmaydi. Ular barqarorlik, ekologik mas'uliyat va yashil infratuzilmani o'z brend strategiyalariga kiritish orqali xorijiy talabalar e'tiborini jalb qilmoqda. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalar universitet tanlashda ekologik xavfsizlik, energiya samaradorligi, chiqindilarni boshqarish va yashil kampus kabi omillarni hisobga oladilar [1]. Demak, universitetlar uchun ekologik mas'uliyat nafaqat axloqiy burch, balki xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishning muhim vositasiga aylangan. AQSh va Yevropaning yetakchi universitetlari, masalan, yashil infratuzilma va barqarorlik hisobotlaridan foydalangan holda talabalar va homiylarning ishonchini qozonishga muvaffaq bo'lishdi [2].

O'zbekiston kontekstida oliy ta'limni modernizatsiya qilish maqsadida qabul qilingan bir qator prezident farmonlari barqaror rivojlanish va ekologik mas'uliyatni ustuvor yo'nalishlarga aylantirdi. "2030-yilgacha bo'lgan Ta'limni rivojlantirish strategiyasi", "Milliy taraqqiyot strategiyasi" va "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi" kabi asosiy hujjatlar universitetlarga yashil infratuzilmani rivojlantirish, barqaror marketing strategiyalarini joriy etish va xalqaro brend yaratish imkoniyatini beradi [3]. Ushbu farmonlar nafaqat energiya samaradorligi va chiqindilarni boshqarishga e'tibor qaratishni, balki talabalar va jamoatchilik bilan ekologik muloqotni mustahkamlashni, shuningdek, ilmiy startaplar va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashni rag'batlantiradi.

Bundan tashqari, MDH mamlakatlari va xorijiy olimlarning so'nggi ilmiy ishlari ekologik brend yaratish, yashil marketing strategiyalari va barqaror muloqot yo'nalishlarida qimmatli tahlillarni taqdim etadi [4]. Ushbu tadqiqotlar global universitetlar uchun yashil marketingning atrof-muhitga ijobiy ta'siridan tashqari iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini tasdiqlaydi. O'zbekiston universitetlari uchun bu bilimlar amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu maqola oliy ta'lim muassasalariga talabalarni jalb qilish, brendni mustahkamlash va xalqaro maydonda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beruvchi aniq yashil marketing strategiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Yana bir muhim jihat shundaki, talabalar qarori faqat akademik ko'rsatgichlar bilan belgilanmaydi. Ularga universitetning ekologik madaniyati, yashil kampus tashabbuslari, energiya samaradorligi va qayta ishlash dasturlari ham ta'sir qiladi. Shuning uchun O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida yashil marketing strategiyalarini joriy etish universitetning xalqaro brendini oshirish va dunyo talabalarini jalb qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotning maqsadi global va MDH universitetlarining yashil marketing tajribasini o'rganish, ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish orqali oliy ta'lim muassasalarida barqarorlik va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishdan iborat. Shu bilan birga, maqola davlatimiz rahbarining farmonlari doirasida universitetlar uchun barqaror rivojlanish va yashil marketingning strategik ahamiyatini aniqlashga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro miqyosda yetakchi universitetlar ekologik barqarorlikni o'z brend strategiyalarining ajralmas qismiga aylantirish orqali talabalarni jalb qilishda muvaffaqiyat qozonmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki,



barqaror universitetlar talabalar tomonidan afzallik beriladigan muassasalar qatoriga kiradi [5]. Universitetlar nafaqat nazariy bilimlar markazi, balki amaliy yashil laboratoriyalar sifatida faoliyat olib boradi.

G'arb universitetlarida yashil marketingning amaliy tatbiqlari keng tarqalgan. Brazilyalik tadqiqotchi Walter Leal Filho o'z maqolasida Niderlandiyaning "Wageningen University & Research" universiteti o'z kampusini "Tirik Laboratoriya" (Living Laboratory) konsepsiyasi asosida rivojlantirib, talabalarga barqaror qishloq xo'jaligi va ekotizimlarni boshqarish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlarda bevosita ishtirok etish imkoniyatini yaratgani, Kanadaning "University of British Columbia" universiteti energiya sarfi va uglerod darajasini real vaqt rejimida doimo kuzatish imkonini beruvchi monitoring tizimini yaratgani va talabalar orasida shaffoflik hissini vujudga keltirgani haqida alohida fikr yuritadi [6].

Yashil marketing nafaqat infratuzilma bilan cheklanmaydi, balki innovatsiyani qo'llab-quvvatlashga ham qaratilgan. National University of Singapore (NUS) ekologik muammolarga innovatsion yechimlarni rag'batlantirish maqsadida maxsus yashil startaplar fondini doimiy faol tarzda ishlatib kelmoqda [7]. Bundan tashqari dunyoda yetakchi universitetlar qatoridan joy olgan Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT) esa o'zining "Climate Portal" platformasi orqali ekologiyaga oid bilimlarni ochiq tarqatishni amalga oshirmoqda. Muhim jihati shundaki, raqamli texnologiyalar va innovatsion platformalar yashil marketingning rivojlanishida muhim o'rin tutib, talabalarning ekologik ongini shakllantirish jarayonini tezlashtiradi.

MDH mintaqasining yetakchi universitetlarida ham barqarorlik yo'nalishida faol islohotlar olib borilmoqda. Rossiyaning "Moskva Davlat Universiteti" va "Sankt-Peterburg Davlat Universiteti" kabi muassasalari "Green Office" markazlarini tashkil etib, energiya tejamkorligi va chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirmoqda [8]. Markaziy Osiyo universitetlari ham yashil marketing strategiyalarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda, bu strategiyalar nafaqat ekologik mas'uliyatni oshirish, balki universitetlarning xalqaro raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi.


Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, universitetlarda yashil marketing strategiyalarini amaliyotga joriy etish nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki xorij talabalarini jalb qilish, brend qadrini oshirish va muassasaning raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida, xususan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti misolida, yashil marketingning xorijiy talabalarni jalb qilishdagi ahamiyatini aniqlash va global ilg'or tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlarini taklif etishdir. Tadqiqot metodologiyasi asosan nazariy va tahliliy usullarga asoslangan bo'lib, ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish, tizimli taqqoslash tahlili, "case study" va SWOT tahlilni o'z ichiga oladi. Ilmiy asosni mustahkamlash uchun "Scopus", "Web of Science" va "Google Scholar" kabi xalqaro ma'lumotlar bazalaridagi ilmiy adabiyotlar, jahon va MDH universitetlarining barqarorlik hisobotlari va strategiyalari, shuningdek O'zbekistonning ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarini tahlil qilindi. Global va mintaqaviy yashil marketing amaliyotlari taqqoslab, ularning TDIU kontekstida qo'llash imkoniyatlari baholandi. O'rganilgan materiallar asosida O'zbekiston oliy ta'limi uchun yashil marketingni joriy etishning amaliy tavsiyalar to'plami va konseptual modeli ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil marketing strategiyalari nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki universitetning xalqaro reytingi va talabalar tomonidan tanlov qilinishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xususan, "UI GreenMetric World University Rankings" 2024 yil ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning yetakchi 100 talik universiteti qatorida bo'lgan muassasalar, bir vaqtning o'zida "QS World University Rankings" va "The Impact Rankings" da ham yuqori o'rinlarni egallagan. Bu holat talabalarning barqarorlik va akademik sifat o'rtasidagi bog'liqlikni anglatayotganligini ko'rsatadi. Quyidagi 1-rasmda dunyoning yetakchi universitetlarining barqarorlikka oid yashil brend strategiyalari va ularning xalqaro reytinglardagi natijalari aks ettirilgan. Vizual tahlil shuni ko'rsatadiki, yashil marketing faqat nazariy tushuncha emas, balki aniq raqamli natijalar va yuqori reyting pozitsiyalari bilan o'lchanadigan amaliy strategiyadir. Har bir universitet o'ziga xos yo'l tanlab, barqarorlikni kampus madaniyatining ajralmas qismiga aylantirgan. Misol uchun, Wageningen universitetining "Tirik laboratoriya" konsepsiyasi uni UI GreenMetric reytingida mutlaq yetakchiga aylantirgan bo'lsa, British Kolumbiya universitetining shaffof CO₂ monitoring tizimi uni "QS Sustainability" reytingi bo'yicha eng yuqori pog'onalardan biriga ko'targan. Bu holat yashil marketingda tashabbusning aniq va o'lchanadigan bo'lishi muhimligini tasdiqlaydi.



1-rasm. Xalqaro universitetlarning yashil brend strategiyalari va ekologik samaradorlik ko'rsatkichlari

Global tajribani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, yashil marketingni samarali joriy etgan universitetlar nafaqat ekologik ko'rsatkichlarni yaxshilash, balki aniq iqtisodiy rentabellikka ham erishmoqda. "Journal of Cleaner Production" nufuzli jurnalida chop etilgan maqolasida Chen va Li shunday xulosaga kelishadi: "Universitetlarning yashil brendi talabalarni jalb qilishning samarali mexanizmi hisoblanib, u atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan birga, uzoq muddatda muassasaning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Bizning 10 yillik panel ma'lumotlar asosidagi tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, kampusdagi barqarorlik investitsiyalarining har bir dollari, o'rtacha hisobda, xorijiy talabalardan tushgan daromadning 1.5 dollariga teng keladi" [9]. Bu fikr yashil marketingning nafaqat ijtimoiy, balki aniq iqtisodiy oqilona ekanligini tasdiqlaydi. Iqtisodiy samara nafaqat to'g'ridan-to'g'ri daromad o'sishidan, balki resurslar samaradorligi orqali xarajatlarni qisqartirishdan ham keladi. Masalan, yirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, universitetlarda qabul qilingan keng qamrovli barqarorlik dasturlari energiya iste'molini va chiqindilarni 20-35% ga kamaytirishi mumkin, bu esa yillik operatsion byudjetda millionlab dollar tejashga olib keladi [10].

Boshqabir muhim jihat – butalabalarning, ayniqsa xorijiy talabalarning o'zgaruvchan qadriyatlarini. "International Journal of Sustainability in Higher Education" da e'lon qilingan global so'rov natijalariga ko'ra, Yevropa va Osiyo talabalarining 68% ta'lim muassasasini tanlashda uning barqarorlik siyosati va ekologik faoliyatini muhim yoki juda muhim omil deb hisoblaydi. Xususan, Xitoy va Hindistondan bo'lgan talabalar orasida bu ko'rsatkich 72% ga yaqinlashadi [11]. O'zbekiston xalqaro talabalar bozori asosan Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo mamlakatlaridan iborat ekanligini hisobga olsak, ushbu mintaqalardagi ekologik ongning oshishi mahalliy universitetlar uchun ham xuddi shunday tendensiyaning kutilayotganligini anglatadi. Bu tendensiya qo'shimcha tadqiqotlar bilan mustahkamlanadi. Masalan, Gupta va Petrova ta'kidlaydiki: "Zamonaviy xorijiy talabalar, nafaqat akademik obro', balki institutsional qadriyatlar muvofiqligini ham qidiradilar. Barqarorlik amaliyotlari shaffoflik, ijtimoiy mas'uliyat va maqsadli yo'nalishning kuchli ko'rsatkichi sifatida qaraladi, bu esa ishonchni mustahkamlaydi va tanlovni shakllantiradi" [12]. Yana bir tadqiqot shuni ko'rsatadiki: "Kampusdagi yashil tashabbuslari talabalarining muassasaga bo'lgan hissiy bog'lanishini va umumiy qoniqish darajasini sezilarli darajada oshiradi, bu esa ularning brend sadoqatini va ijobiy og'zaki reklama qilish ehtimolini oshiradi" [13]. Bundan tashqari, global bozorni tahlil qilgan olimlar qayd etadiki: "Iqlim o'zgarishi va atrof-muhit muammolari jahon miqyosidagi eng dolzarb muammolardan biri sifatida qaralgani sari, potentsial talabalar o'zlarining akademik va kasbiy tanlovlarini bu global vaziyatga moslashtirmoqda. Shuning uchun ular kelajakdagi ta'lim maskani sifatida "yashillik" ni o'z strategiyasining markaziga qo'ygan universitetlarni afzal ko'rmoqda" [14].



Ushbu ilmiy dalillar talabalarning qarorida barqarorlikning nafaqat amaliy, balki chuqur psixologik, qadriyatlar nuqtai nazaridan va strategik ahamiyatga ega ekanligini aniq ko'rsatadi.

UI GreenMetric - bu universitetlarni atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyati bo'yicha baholovchi xalqaro reyting tizimi. Quyidagi 2-rasm O'zbekiston universitetlarining aynan shu reytingda qayt etgan natijalari va egallagan o'rinlarini aks ettiradi.

Jahon reytingi ↑	Mamlakat darajasi ↑	Universitet	Umumiy ball ↑	SI ball ↑	EC ball ↑	WS ball ↑	WR ball ↑	TR ball ↑	ED ball ↑
270	1	Toshkent davlat yuridik universiteti 📍O'zbekiston, Osiyo	7725	1250	1675	1125	750	1550	1375
300	2	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 📍O'zbekiston, Osiyo	7575	1025	1750	1200	800	1425	1375
347	3	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 📍O'zbekiston, Osiyo	7275	1000	1575	900	750	1550	1500
370	4	Jizzax politehnika instituti 📍O'zbekiston, Osiyo	7200	1025	1575	1275	750	1275	1300
372	5	Samarqand iqtisodiyot va servis instituti 📍O'zbekiston, Osiyo	7200	925	1300	1275	800	1600	1300
383	6	Toshkent davlat pedagogika universiteti 📍O'zbekiston, Osiyo	7160	960	1500	975	700	1550	1475
447	7	Buxoro davlat universiteti 📍O'zbekiston, Osiyo	6910	1125	1600	900	500	1310	1475

2-rasm. UI Green metric dunyo universitetlari reytingi 2024 [15].

Yuqorida keltirilgan jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak, 2024-yil 7 ta yetakchi universitet orasida Toshkent davlat yuridik universiteti 7725 ball bilan mamlakatda birinchi va dunyoda 270-o'rin, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti esa 7575 ball bilan mamlakatimizda ikkinchi, dunyo miqyosda 300-o'rinni egalladi. Turli ixtisoslikdagi, jumladan yuridik, iqtisodiy, texnika va turli hududlardagi: Toshkent, Samarqand, Buxoro, Jizzax, universitetlarning reytingda ishtiroki yashil tamoyillarning butun mamlakat bo'ylab tarqalayotganini ko'rsatadi.

Davlat rahbarining farmonlari va milliy strategiyalar barqarorlikni ustuvor yo'nalish sifatida belgilab bergan bo'lsa, global tajriba shuni ko'rsatadiki, yashil infratuzilma investitsiyalari o'rtacha 1,5 baravar iqtisodiy rentabellik keltiradi va xarajatlarni sezilarli darajada qisqartiradi. Bundan tashqari, "GreenMetric"da ishtirok etayotgan universitetlar sonining 2021-yildagi 8 tadan 2024-yilda 52 taga oshishi ham faollikning ortishi haqida dalolat beradi [16]. Biroq, jiddiy zaif tomonlar ham mavjud: O'zbekiston universitetlarining hech biri hozircha reytingning Top - 200 taligiga kira olmagan, bu esa ularning barqarorlik amaliyotlari hali global standartlardan ancha past ekanligini ko'rsatadi. Yashil tashabbuslar ko'pincha tizimli emas, balki parcha-parcha loyihalar darajasida qolmoqda, katta boshlang'ich sarmoya talab qiladigan yashil infratuzilma esa ko'p muassasalar uchun moliyaviy to'siq hisoblanadi.

Shu bilan birga, universitetlar uchun keng imkoniyatlar mavjud. Global va mintaqaviy yetakchi universitetlarning "Tirik laboratoriya", "Green Office" yoki real vaqt monitoring tizimlari kabi muvaffaqiyatli tajribalarini mahalliy sharoitga moslashtirish mumkin. Bu orqali O'zbekiston universitetlari Markaziy Osiyo mintaqasida "yashil universitet" sifatida ajralib turishi va ekologik ongi yuqori bo'lgan Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Janubiy Osiyodan tashrif buyuruvchi talabalar uchun jozibador manzilga aylanishi mumkin. Davlat strategiyalariga muvofiq grantlar va investitsiyalarni jalb qilish ham imkoniyatlardan biridir. Ammo bir vaqtning o'zida, xavotirlansa arzigulik jihatlar ham yetarlicha ekanligini unutmashimiz kerak. Qo'shni mamlakatlar universitetlari allaqachon yashil brendni rivojlantirish bo'yicha raqobatni kuchaytirmoqda. Demak, O'zbekiston universitetlarining muvaffaqiyati haqiqiy o'zgarish va samaradorlikni nazarda tutuvchi, izchil va resurslar bilan ta'minlangan uzoq muddatli yashil marketing strategiyasini qabul qilish va amalga oshirish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.



XULOSA VA TAVSIYALAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, zamonaviy globallashuv sharoitida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi yashil marketing strategiyasini qamrab olish darajasi bilan bevosita bog'liq holda rivojlanmoqda. Xorijiy talabalar o'rtasida ekologik mas'uliyat va barqarorlik prinsiplariga sadoqat institutsional imidjning ajralmas qismiga aylanib, ta'lim muassasasini tanlashdagi qarorlar shakllanishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun yashil marketingni joriy etish ekologik talablarga javob berish chegarasidan ancha tashqariga cho'zilgan murakkab jarayonni ifodalaydi. Bu borada global amaliyotlarni o'rganish va ularni mahalliy kontekstga moslashtirish zarurati mavjud. Xususan, Wageningen universitetining "Tirik laboratoriya" konsepsiyasi, Britaniya Kolumbiya universitetining shaffof monitoring tizimi yoki ning iqlim Massachusetts Texnologiya Instituti platformasi kabi yutuqlarni mahalliy sharoitiga tatbiq etish istiqbolli yo'nalish sifatida ko'rinadi.

Tadqiqotda aniqlangan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari yashil marketing investitsiyalarining uzoq muddatli iqtisodiy maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilish choralarning talabalarining psixologik va hissiy bog'lanishiga ijobiy ta'siri muassasaning brend sadoqatini shakllantirishda ahamiyatli omil sifatida qayd etilgan.

O'zbekiston universitetlarining "UI GreenMetric" reytingidagi ishtiroki dinamikasi ijobiy tendensiyani ko'rsatsa-da, yuqori reyting guruhlariga kirish uchun tizimli va strategik yondashuvni talab qiladi. Yashil infratuzilmani rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bir vaqtda, bu faoliyatlarning xalqaro miqyosda samarali kommunikatsiyasi ham ahamiyat kasb etadi.

Kelajakdagi izlanishlar O'zbekiston sharoitida yashil marketingning o'ziga xos modelini ishlab chiqishga, shuningdek, uning ta'lim sifatiga va talabalar qoniqish darajasiga ta'sirini aniqlashga qaratilishi mumkin. Universitetlarning barqaror rivojlanish yo'lida qo'ygan har bir qadami nafaqat ekologik jabhadagi yutuq, balki ta'lim sifatini oshirish va xalqaro hamjamiyatda obro' qozonish imkoniyatini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Leal Filho, W., Salvia A. L., Frankenberger F., Akib N. A. M., Sen S. K., Sivapalan S., Novo-Corti I., Venkatesan M., Emblen-Perry K. (2021). Governance and sustainable development at higher education institutions. *Environment, Development and Sustainability*, 23, 6002-6020. <https://doi.org/10.1007/s10668-020-00859-y>
2. Son-Turan S. (2021). Sustainability reporting in higher education: A review of the recent literature. In W. Leal Filho, A. L. Salvia, R. W. Pretorius, L. L. Brandli, E. Manolas, F. Alves, U. Azeiteiro, J. Rogers, C. Shiel, & A. Do Paco (Eds.), *Universities as living labs for sustainable development* (pp. 647-661). Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-030-15604-6_39
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. (2020-yil 8-oktyabr). Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-5030457>, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonni rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. (2021-yil 28-yanvar). Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-5291395>, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-16-son Farmoni. (2022-yil 28-yanvar). Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
4. Aishehhi A., Nobanee H., Khare N. (2018). The impact of sustainability practices on corporate financial performance: Literature trends and future research potential. *Sustainability*, 10(2), 494. <https://doi.org/10.3390/su10020494>, Veleva, V., Ellenbecker, M. (2001). Indicators of sustainable production: Framework and methodology. *Journal of Cleaner Production*, 9(6), 519-549. [https://doi.org/10.1016/S0959-6526\(01\)00010-5](https://doi.org/10.1016/S0959-6526(01)00010-5)
5. Wang C., Hsu H., Wang L. (2023). The impact of sustainability branding on student enrollment decisions: Evidence from global universities. *Journal of Marketing for Higher Education*, 33 (1), 1-19. <https://doi.org/10.1080/08841241.2022.2057982>
6. Leal Filho W., Salvia A. L., Frankenberger F., Akib N. M., Sen S. K., Sivapalan S., Kovaleva M. (2021). Governance and sustainable development at higher education institutions. *Environment, Development and Sustainability*, 23(4), 6002-6020. <https://doi.org/10.1007/s10668-020-00859-y>
7. Son-Turan S. (2021). Green entrepreneurship for sustainable development: The role of university funding. *Journal of Cleaner Production*, 289, 125-143. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2020.125143>
8. Filho W. L., et al. (2019). Sustainable development goals and sustainability teaching at universities. *International Journal of Sustainability in Higher Education*, 20(1), 23-42. <https://doi.org/10.1108/IJSHE-05-2018-0092>
9. Chen L., Li W. (2023). The economic rationale behind green branding in higher education: A longitudinal study of investment returns. *Journal of Cleaner Production*, 405, 136998. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2023.136998>
10. Beringer A., Wright T., Dyer S. (2021). A framework for sustainability benchmarking of university campuses: Assessing operational efficiency and environmental performance. *Journal of Environmental Management*, 287, 112282. <https://doi.org/10.1016/j.jenvman.2021.112282>



11. Schmidt M., Alvarez R. (2022). Regional variations in student preferences for university sustainability policies: A global survey analysis. *International Journal of Sustainability in Higher Education* 23(4), 789-805. <https://doi.org/10.1108/IJSHE-08-2021-0334>
12. Gupta A., Petrova K. (2021). Values alignment and institutional choice in the global student mobility market. *Studies in Higher Education*, 46(8), 1523-1538. <https://doi.org/10.1080/03075079.2019.1691162>
13. O'Brien C., Ryan T. (2020). The green campus as a psychosocial ecosystem: Impacts on student identity, satisfaction, and advocacy. *Environmental Education Research*, 26(9-10), 1325-1341. <https://doi.org/10.1080/13504622.2020.1776842>
14. Tanaka Y., Chen H. (2023). Environmental push factors and the search for sustainable higher education destinations: A study of Asian outbound students. *Journal of Studies in International Education*, 27(2), 188-205. <https://doi.org/10.1177/10283153221092847>
15. UI Green Metric. (2024). UI Green Metric World University Rankings 2024. [Ui.ac.id. https://greenmetric.ui.ac.id/rankings/overall-rankings-2024](https://greenmetric.ui.ac.id/rankings/overall-rankings-2024) ;
16. UI Green Metric Rankings 2021. (2021). UI green metric World University Rankings 2024 [Ui.ac.id. https://greenmetric.ui.ac.id/rankings/overall-rankings-2021](https://greenmetric.ui.ac.id/rankings/overall-rankings-2021)



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>